



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING KONSTITUTSIYASINING SHAKLLANISH JARAYONI VA MAQSADLARI.

Dalibekova Mardonaxon Nodirbek qizi
Andijon shahar Yuridik texnikumil-boqich talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining yaratilish jarayoni, tarixiy omillari va uning qabul qilinishiga sabab bo'lgan siyosiy-ijtimoiy sharoitlar keng yoritilgan. Shuningdek, Konstitutsiyaning asosiy maqsadlari — mustaqil davlatning huquqiy poydevorini yaratish, inson huquqlarini oliy qadriyat sifatida belgilash, demokratik boshqaruv tizimini shakllantirish hamda bozor iqtisodiyotiga o'tishning huquqiy asoslarini mustahkamlash kabi jihatlar tahlil qilingan.

Maqola O'zbekistonning Konstitutsiya yaratish yo'lidagi tarixiy tajribasini ochib berishga, Asosiy Qonunning mamlakat taraqqiyotidagi o'rnini tushuntirishga qaratilgan.

Kalit sozlar: konstitutsiya, milliy davlat, demokratik, qadriyat, inson huquqlari, huquqiy erkinlik, ijtimoiy davlat.

KIRISH

Har bir davlatning siyosiy tizimi, huquqiy asoslari va jamiyat hayotining bosh tamoyillari uning Konstitutsiyasida o'z ifodasini topadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi esa mustaqillikning dastlabki yillarida shakllangan, mamlakatning yangi taraqqiyot bosqichini belgilab bergan eng muhim me'yoriy hujjatdir.

Asosiy qism: Mustaqillik e'lon qilinganidan so'ng, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va huquqiy hayotida tub o'zgarishlar yuzaga keldi. Bu jarayonlar o'z navbatida milliy davlat qurilishi uchun mustahkam, mukammal va demokratik Konstitutsiyani ishlab chiqishni taqozo etdi. O'zbekiston Konstitutsiyasi xalqning siyosiy irodasini, demokratik qadriyatlarni va inson huquqlarining ustuvorligini

o'zida mujassamlashtirgan holda, davlat boshqaruvi tizimi, mulkchilik munosabatlari hamda fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklarini belgilab berdi. Mazkur maqolada Konstitutsiyaning yaratilishiga olib kelgan tarixiy omillar, uni ishlab chiqish jarayonida amalga oshirilgan izlanishlar, shuningdek Asosiy Qonunning asosiy maqsadlari va ahamiyati batafsil tahlil qilinadi. Shu orqali O'zbekistonning konstitutsiyaviy taraqqiyot yo'lidagi qadamlari va Konstitutsiyaning davlat hayotidagi o'rne ochib beriladi.

O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi yaratish tarixi haqida so'z yuritishdan oldin "Konstitutsiyasi nima?" Degan savolga qisqacha ma'lumot berib ketsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Konstitutsiya lotincha so'zdan olingan bo'lib "constitution" tuzilish, tuzuk, asos, belgilab qo'yish, tartib o'rnatish, qaror kabi degan ma'nolarni anglatadi. Konstitutsiya davlatning asosiy qonun.

U davlat tuzilishini, hokimiyat va boshqaruv organlari tizimini, ularning vakolati hamda shakllantirilish tartibi, saylov tizimi, fuqarolarning huquq va erkinliklari, davlat va fuqarolarning ortasida vujudga keladigan munosabatlarni belgilab beradi tartibga soladi.



Dastlab zamonaviy yozma konstitutsiyaning ilk namunasi AQSh - 1787-yil qabul qilingan AQSh konstitutsiyasi dunyodagi birinchi yozma, yagona hujjat sifatida tuzilgan zamonaviy konstitutsiya hisoblanadi. U hozirgacha amal qilib kelayotgan eng qadimgi yozma konstitutsiya hamdir.

Evropadagi dastlabki konstitutsiyalar Fransiya - 1791-yilda Fransiya inqilobidan so'ng birinchi yozma konstitutsiyasini qabul qilgan. Shundan so'ng yozma konstitutsiya yaratish jarayoni Yevropa va butun dunyo bo'ylab keng tarqala boshlagan.

Shu qatori O'zbekiston 1991-yil 31- avgust davlat mustaqilligini e'lon qilgach, yangi jamiyatni barpo etish uchun mustaqil, demokratik huquqiy hujjat zarur endi. Sovet davrida amal qilgan qonunchlik mustaqil davlat qurilish talablariga javob bera olmas edi.

Shu sababli O'zbekiston uchun o'ziga xos, zamonaviy, xalq manfaatlariga mos Konstitutsiya ishlab chiqish dolzarb vazifa bo'lib qoldi. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasi dastlab 1990 - yil 20 iyulda loyihani tayyorlash uchun 64 kishilikdan iborat maxsus komissiya tuzilgan unda O'zbekiston respublikasining 1-chi prezidenti Islom Karimov rais sifatida ishtirok etgan.

Unda yuridik sohaga oid mutaxassislar, siyosatchilar, ilmiy jamoatchilik vakillari faol ishtirok etgan. Loyiha ustida ishlash jarayonida jahondagi ilg'or tajribalar, inson huquqlari bo'yicha xalqaro me'yorlar chuqur o'rganilgan. Ushbu loyiha ustida 2 yildan ortiq ilmiy izlanishlar olib borilgan. Loyiha 3 marta muhokama qilingan. 1-etabi komissiya 2-etabi xalqdan 3-etabi deputatlardan. 1992 yil 26-sentiyabirda gazeta orqali xalq muhokamasiga taqdim etilgan. Xalq tomonidan 6 mingdan ortiq takliflar tushgan. So'ng 80 ga yaqin moddaga o'zgartirishlar va qo'shimchalar kiritishgan. 21- noyabr oyida ikkinchi marta muhokama uchun e'lon qilingan.

So'ng 1992-yil 8-dekabr kuni O'zbekiston respublikasi Oliy kengashning 12-chaqiriq 11-sessiyasida Konstitutsiya rasmiy ravishda qabul qilindi. Konstitutsiya 6 bo'lim, 26 bob va 128 moddadan iborat bo'lib, davlat boshqaruvi tizimi, fuqarolarning asosiy huquq va erkinliklari, jamiyatning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslari aniq belgilab berildi. O'zbekiston respublikasi konstitutsiyasiga o'zgartirishlar kiritish sabablari davlatchilik, ijtimoiy-siyosiy iqtisodiy va sud-huquq sohalarini bundan keyin ham barqaror rivojlantirish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Konstitutsiya yangi tahrir qabul qilinish uchun 2022-yil 20-mayda 47-nafardan iborat maxsus komissiya tuzildi unda tomchilar ham ishtirok etdi. Konstitutsiya 65% o'zgartirishlar kiritildi moddalar soni 128-tadan 155-tagacha ko'paydi. Asosiy qo'shimchalar: Inson qadri huquq va erkinliklarni end oliy qadriyat sifatida e'tirof etildi. Konstitutsiyaning 13 moddasida batafsil yoritib berilgan. "O'zbekiston - ijtimoiy davlat" tamoyili belgilandi. Prezident muddati 5-yildan 7-yilga uzaytirildi.

O'zbekiston respublikasi yangi tahrirdagi konstitutsiya Oliy majlis tomonidan 2023-yil 30 aprelda rasmiy ravishda qabul qilindi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiya 6 bo'lim 27 bob 155 modda iborat Konstitutsiyaning asosiy maqsadi — davlatning siyosiy, huquqiy va ijtimoiy tizimini belgilash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash hamda jamiyatda barqaror tartibni ta'minlashdir.

Quyida konstitutsiyaning asosiy maqsadlari kengroq yoritilgan:



1. Davlatning huquqiy asoslarini belgilash

Konstitutsiya davlatning tuzilishi, boshqaruv shakli, hokimiyat tarmoqlari o'rtasidagi vakolatlar taqsimoti kabi asosiy me'yorlarni belgilaydi.

2. Inson va fuqaro huquqlarini kafolatlash

Har bir fuqaroning huquqlari, erkinliklari, burchlari Konstitutsiyada aniq ko'rsatib beriladi. Uning asosiy vazifasi – shaxsning sha'ni, qadr-qimmatini va erkinligini himoya qilish.

3. Hokimiyatni cheklash va muvozanatlashtirish

Ijro, qonun chiqaruvchi va sud hokimiyati o'rtasidagi o'zaro nazorat va muvozanat tamoyilini ta'minlaydi.

4. Jamiyatda barqarorlik va tartib yaratish

Konstitutsiya umumiy qoidalar va tartiblar orqali jamiyat hayotida barqarorlikni saqlashga xizmat qiladi.

5. Fuqarolik jamiyatini rivojlantirish

Unda demokratik tamoyillar, siyosiy plyuralizm, erkinliklar va fuqarolarning ijtimoiy faolligi uchun huquqiy asoslar yaratiladi.

6. Iqtisodiy tizimning asoslarini belgilash

Mulkchilik shakllari, tadbirkorlik erkinligi, bozor iqtisodiyotiga oid asosiy qoidalar konstitutsiyada mustahkamlanadi.

7. Suverenitet va davlat mustaqilligini ta'minlash

Konstitutsiya davlatning mustaqil siyosatini yuritish, hududiy yaxlitligini saqlash va xalqning manfaatlarini himoya qilishni kafolatlaydi.

XULOSA

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mustaqillikning eng muhim huquqiy poydevori sifatida shakllangan bo'lib, uni yaratish jarayoni chuqur siyosiy, ijtimoiy va huquqiy islohotlar bilan chambarchas bog'liqdir.

Konstitutsiya 1992-yil 8-dekabrda qabul qilingan bo'lsa-da, uning tayyorlanishi xalqning tarixiy tajribasi, milliy qadriyatlari va demokratik tamoyillar asosida amalga oshirilgan murakkab va mas'uliyatli jarayon bo'lgan.

Konstitutsiya ishlab chiqilishining bosh maqsadi – mustaqil davlatning huquqiy asoslarini yaratish, xalq hokimiyatchiligi, inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash, davlat tuzilishi va boshqaruv tizimini aniq belgilab berishdan iborat edi.

Shuningdek, hujjat mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning manfaatlarini himoya qilish hamda barqaror siyosiy-huquqiy tizimni shakllantirishga xizmat qildi. Bugungi kunda Konstitutsiya O'zbekiston taraqqiyotining strategik yo'nalishlarini belgilovchi, jamiyat hayotida demokratik qadriyatlarni mustahkamlovchi bosh huquqiy manba sifatida ahamiyat kasb etmoqda.

Uning doimiy takomillashtirilishi esa mamlakatda modernizatsiya jarayonlari, fuqarolik jamiyati rivoji va insonparvar demokratik tamoyillarni ro'yobga chiqarishga xizmat qiladi. Shu tariqa, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi — mustaqillik, taraqqiyot va adolatli jamiyat barpo etish yo'lidagi eng muhim huquqiy kafolatdir.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'XATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-yildagi yangi tahrir.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 1992-yildagi eski tahrir va tarixi
3. O'zbekiston Respublikasi rasmiy sayti [www.http.LEX.uz](http://LEX.uz)
4. O'zbekiston Respublikasi rasmiy sayti [www.http.NORMA.uz](http://NORMA.uz)
5. Konstitutsiyaviy huquq darsligi O.T.Husanov 2025